

Bafoyeva Sohiba.

Buxoro viloyati Romitan tumani

4 - Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning o'yin, ta'lim-tarbiya jarayonlarida namoyon bo'ladigan turli xil holatlariga nisbatan bolalarning qaysi temperament turiga kirishlarini aniqlashda xatolikka yo'l qo'ymalik, yani ba'zan bolalarda namoyon bo'ladigan turli xil temperament xususiyatlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik ko'zda tutilgan.*

Kalitso'zlar: *temperament, flegmatik, sangvinik, xolerik, melanxolik, tip, ijtimoiymuhit, xa rakter.*

Аннотация: *В статье в дошкольных образовательных организациях важно не ошибиться в определении типа темперамента детей по отношению к различным ситуациям, проявляющимся в их игровых, образовательных и воспитательных процессах, т.игнорировать различные особенности темперамента ,каторге иногда проявляются у детей.*

Ключевые : *темперамент, меланхолия, сангвиник, холерик, флегматик, тип социальная среда.*

Abstract : *Children in kindergarten not to make a mistake in determining which type of temperament children fall into in relation to the various situations manifested in the game, education and upbringing processes ,that is, not ignore the various temperament characteristics that are sometimes manifested in children .*

Key words: *temperament, phlegmatic, sanguine, choleric, melancholy, tyre social enviroment.*

Kirish qism

Mashhur psixolog Merlin shunday deb yozgan edi: „Ikkita daryoni tasavur qiling biri sokin, ikkinchisi tez, tog'li. Birinchisining borishi deyarli sezilmaydi, chayqalishlar va bo'ronli sharsharalari yo'q. Ikkinchisi esa butunlay teskari. Daryo tezda oqadi, undagi suv shivirlaydi, qaynaydi va toshlarga tegib ko'pik bo'laklarga aylanadi". Insonlar ham xuddi shunday o'zlarining his-tuyg'ulari bilan bir-birlaridan farq qiladilar, ajralib turadilar. Insonlar his-tuyg'ularini o'rganish , ularning xatti-harakatlarini tushunish maqsadida temperament tushunchasi fanga olib kirilgan.

Har bir kishining o'z temperamenti bo'ladi. Temperament-kishidagi hisiyotlarning qo'zg'alishida va u bajaradigan harakatlarda ko'rinadigan individual xususiyatdir.

Temperamentlar 4 tipga ajratilgan bo'lib ularni quyidagicha tariflash mumkin. Xolerik temperamentli bola: faol; beixtiyor; muqobil; Ko'pincha tajovuzkor. Bunday bolalar shovqinli va faol o'yinlarni afzal ko'radilar, yetakchilik fazilatlarini namoyon etadilar, materialni tezda idrok etadilar va yodlaydilar, ular uchun yangi muhitga osongina moslashadilar va qiyinchilik bilan uxlab qolishadi. Xolerik bolaning ota-onalari bolaning energiyasini to'g'ri yo'naltirishga harakat qilishlari kerak. Bunday bolani sportga yo'naltirish juda foydali. Xolerik bolalar yopiq joylarni yoqtirmaydilar, shuning uchun tabiatda sayr qilish va toza havo ular uchun juda foydali.

Melankolik temperamentli bolalar juda xavotirli, o'zini tuta bilishadi, boshqalarga nisbatan yopiq, oqilona, shoshilmaydilar. Bunday bolalar tezda charchashadi, o'z qobiliyatlariga ishonchlari komil emas, juda sezgir. Melankolik bolalar kattalar bilan muloqot qilishni yaxshi ko'radilar, ular osongina xafa bo'lishadi. Ota-onalar melankolik bolalarga g'amxo'rlik, e'tibor va mehr ko'rsatishlari, ularning tashabbuslarini rag'batlantirishlari, ular bilan muloqot qilish jarayonida ehtiyot bo'lishlari kerak.

Flegmatik temperamentli bola harakatsiz, xotirjam, vazmin, hissiyotsiz. Bunday bolalar tinch o'yinlarni afzal ko'radilar, uzoq vaqt davomida yangi sharoitlarga moslashadilar. Ota-onalar flegmatik bolalarni faollashtirishga, bo'sh vaqtlarini diversifikatsiya qilishga, epchillik va harakatchanlikni rivojlantirishga harakat qilishlari kerak.

Sangvinik temperamentli bolalar ochiq ko'ngil, faol, chaqqon, quvnoq, yetakchilikka moyil. Ular kamdan-kam xafa bo'lishadi, ular ochiq o'yinlarni yaxshi ko'radilar. Sangvinik bolalarda ko'pincha sabr-toqat yetishmaydi. Bunday bolalar haqiqatan ham doimiy nazoratga va kattalarning e'tiboriga muhtoj.

Kishi qanday temperament vakili ekanligi uning hissiyotlari qo'zgaluvchanligida, barqarorligida, aqliy jarayonlarida, nutq tezligida, bajaradigan har bir harakatida aks etadi. Bolalarning ham qanday temperament vakili ekanligi shu holatlarda namoyin bo'ladi. Temperament insonda tug'ma paydo bo'lgan bo'lsada, u tarbiya va tashqi ta'sirlar natijasida o'zgarishi mumkin. Tashqi ta'sirlarga bola yashab turgan ijtimoiy muhitdagi hodisalar va insonlar kiradi. Insonlar orasida bolaning ota-onasi, tarbiyachi –ustoz muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar bolalarida temperament xususiyatlarni yoshlikdan tarbiyalab borishlari lozim. Buning uchun avvalambor bolaning qaysi temperamentga kirishini aniqlash lozim. Bunda ota-onalar tarbiyachi, ustozlar bilan, pedagog-psixologlar bilan hamkorlikda ish olib borishlari lozim. Chunki bolaning faqat oilada bo'ladigan turli sharoitlarga munosabatini ko'rib uning qaysi temperamentga kirishini aniqlab bo'lmaydi. Bolani maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, ko'chada va oilada turli sharoitlarda o'zini tutishini baholab umumlashtirib so'ng xulosa chiqarish kerak. Bunday yo'l tutishimizga sabab bolaning qanday psixologik holatda ekanligini aniqlamay turib uni chetdan turib baholab noto'g'ri xulosa chiqarmaslikdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir bolaga nisbatan uning qaysi temperamentga kirishi aniqlanadi va shunga ko'ra unga turli xil munosabatda bo'ladilar. Demak bolaning qasi tip vakili ekanligi va buni to'g'ri aniqlash juda muhim ahamiyatga ega. Biz bolalarni faqatgina bitta holatni ko'ra turib baholay olmaymiz. Chunki bolada turli hodisalarga nisbatan hosil bo'ladigan turlicha holatlar mavjud. Masalan, bolaga uyga vazifa berilganda, vazifani bajarishda va uy ishlarini qilishida sekin harakat qilishini ko'rib, uni flegmatik deb o'ylash mumkin. Ammo uni stadionda o'zi yoqtirgan komanda raqib darvozasiga to'p kiritgan paytida jazavaga tushishini ko'rib, uni xolerik temperamentli bola degan xulosaga kelamiz. Guruhda u sangvinik temperament vakili xususiyatlarini namoyon qilishi yoki doska oldiga chiqqanda uni melanxolik deb o'ylashimiz mumkin. Turli temperamentga ega bo'lgan o'quvchilarni ana shunga o'xshash sharoitlarda kuzatsangiz ularning xulq-atvorlari yan ham xilma-xil ekanini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham boladagi turli psixologik holatlarni kuzatmay turib uni ma'lum bir temperamet vakili deyish qiyin. Bolaning qaysi temperament vakilli ekanligini aniqlash usullari juda ham ko'p. Masalan o'yin orqali ham bolaning qaysi temperment vakili ekanligini aniqlashimiz mumkin. Buning uchun stolga 20 ta kubik va kurakcha qo'yib kubiklarni kurakchaga qo'yib 2-stulga ko'chirishni taklif qilinadi. Bunda xolerik tipdagi bola ishni birinchi bo'lib bajaraman deb shoshilib kubiklarni to'kib yuboradi. Melanxolik men buni qila olmayman deydi, flegmatik shoshmasdan sekin bajaradi. Qaysi usuldan foydalanishimizdan qat'iy nazar xatolikka yo'l qo'ymasligimiz uchun biz bolani psixologik holatini aniqlagandan so'ngina uni qaysi temperament vakili ekanligini aniqlashimiz kerak.

Xulosa

Bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularni aqlan yetuk komil shaxslar qilib voyaga yetkazish har bir ota-ona pedagog uchun o'ta ma'sulyatli vazifadir. Bu vazifani ado etishda amalga oshiriladigan har bir harakat va holat muhim sanaldi. Bunda bizga bolaning qanday temperament vakili ekanligini bilish yordam beradi. Chunki hech bir ota-ona va pedagog bolaning xarakterini bilmay turib unga qanday munosabatda bo'lishi bilmaydi. Ota-ona va pedagoglardan talab qilinadigan narsa esa faqatgina bolaning qanday xarakter vakili ekanligini to'g'ri aniqlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi.pdf.
2. Maktabgacha pegagogika. SH. Sodiqova. Toshkent -2012.
3. Psixolog Kitobi. Toshkent-2021 .Nasiba Erxonova. Shoirra Isaqova.
4. https://atelim.com/Alisher_navoiy_nomidagi_Samarqand_davlat_universiteti_psixalogiya_kafedrasi.
5. V.S Merlin, Temperament nazaryasi bo'yicha insho, 1973.